



Jizzax davlat
Pedagogika
Universiteti

TARIX FAKULTETI

HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
Журнал

№ 1

JOURNAL
2024



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

Bosh muharrir: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),
dotsent.tarix fakulteti dekani

Bosh muharrir Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,
o‘rinbosari: dotsent

Mas’ul kotib: Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Karimova. N.I

MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** _____ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. _____ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. _____ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz _____ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor _____ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. _____ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. _____ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. _____ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. _____ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. _____ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. _____ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. _____ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. _____ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. _____ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . _____ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. _____ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. _____ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. _____ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. _____ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. _____ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi _____ 100-105

TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR

Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy tarix kafedrası o'qituvchisi.
Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich 204-guruh
talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar sulolasining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga, insoniyatning ilmiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-g'oyaviy, madaniy va tafakkur darajasi keskin ko'tarilishiga qo'shgan hissasi beqiyosligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot taraqqiyoti hamda ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan davr, xalqimizni esa shu paytgacha ikki marotaba Renessansga asos solgan el sifatida e'tirof etadi. Ya'ni xalqimiz haqli ravishda Renessans yarata olgan kam sonli xalqlar sirasiga kiritiladi. Mazkur maqolada shular xususida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Temuriylar, sivilizatsiya, renessans, kashfiyot, xalq, san'at, adabiyot, madaniyat.

Аннотация: В данной статье вклад Амира Темура и династии Тимуридов в развитие мировой цивилизации, в резкий подъем научного, политико-правового, духовно-идеологического, культурного и интеллектуального уровня человечества не оставляет ни у кого сомнения. Мировое сообщество признает эпоху Тимуридов как эпоху, отразившуюся в развитии науки, культуры, искусства и литературы, а также великих открытий и изобретений, а наш народ – как нацию, дважды основавшую эпоху Возрождения. Наш народ по праву входит в число немногих народов, сумевших создать эпоху Возрождения. О них мы и поговорим в этой статье.

Ключевые слова: Тимуриды, цивилизация, Возрождение, открытия, народ, искусство, литература, культура.

Annotation: In this article, the contribution of Amir Temur and the Timurid dynasty to the development of world civilization, to the sharp rise in the scientific,

political-legal, spiritual-ideological, cultural and intellectual level of mankind, leaves no doubt in anyone's mind. The world community recognizes the era of the Timurids as the era reflected in the development of science, culture, art and literature, as well as great discoveries and inventions, and our people as a nation that founded the Renaissance twice. Few of our people were able to legitimately create a Renaissance

Keywords: Timurids, civilization, renaissance, discovery, people, art, literature, culture.

Amir Temur hayoti va faoliyati hamda bu masalani yorituvchi asosiy tarixiy manbalar xilma-xil bo'lib, bu Amir Temurning jahon tarixidagi roli buyuk ekanligidan va uning nomi g'oyat mashhurligidan dalolat beradi. Mazkur manbalar jamiyat tarixini o'rganuvchi olimlarimizning asarlarida, ayniqsa, o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilgan. Jumladan "Amir Temur jahon tarixida" nomli fundamental tadqiqotda batafsil tahlil etib berilgan. Ushbu tadqiqotda mavzu bo'yicha jahonning turli tillarida nashr etilgan adabiyotlar ro'yhati ham keltirilgan. [Amir Temur jahon tarixida. BMT. YUNESKO. Parij, 1996, - B. 119-128, 256-293]. Amir Temurning ibratli hayoti,

saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. "Amir Temur tuzuklarini o'qisam,"- degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov-xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman" [Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z.T. 1986 y]

Amir Temur qudratli davlat barpo etgach G'arbiy Yevropa hukumdorlari Usmonli turk imeriyasi hujumidan tashvishga tushib undan yordam so'raydi. "Shu maqsadni ko'zlagan Vizantiya imperatori Manuil II Paleologning dojlari (imperatorning o'zi o'sha kezlarda G'arbiy Evropa qirollari huzurida bo'lgan) Yildirim Boyazid tazyiqidan xalos etishni so'rab, Amir Temurga murojaat qilishadiva shu paytgacha turk sultoniga to'lab kelgan bojlarini bunday buyon Sohibqironga berajaklarini aytadilar. Kastiliya qirollari Genrix III va Frantsiya qirollari Karl VI o'z elchilarini, Rimpapasi Bonifakiy IX bo'lsa o'z katolik missionerlarini

shoshilinch Amir Temur huzuriga yo'lladilar [Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. T. 1996 y]. Bu yozishmalar jahon tarixshunosligi va manbashunosligida muhim o'rin egallaydi. "...bu nomalarning asl nusxavatarjima variantlari hozirda Parij, Madrid va London kutubxonalarida saqlanib kelinadi. Buhaqdabizquyidagi tarixiy asarlardan bilib olsak bo'ladi" [Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. T.1996]. Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, ular o'zaro uzviy bog'langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma'naviy yuksakligini yuzaga keltira olgan.

Bulardan birinchi navbatda siyosiy- ijtimoiy omilni ko'rsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, o'zaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo'linib ketgan va kelgindi hukmronlar - mo'g'illar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zo'ravonliklar, o'zboshimchaliklar kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishni ta'minladi.

Ikkinchi - iktisodiy omil - Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik, ishlab chiqarishni jadal rivojlanishga olib keldi.

Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada kator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Uchinchi - ma'naviy omil - avvalgi madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markatiy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgan madaniy – ma'naviy boyliklardan, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'miniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy Nizomiy Ganjaviy, Rumii, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan: Musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy, boyliklaridan keng foydalanildi. To'rtinchi - g'oyaviy omil - bu omil

ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf - xususan Naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, AbduXoliq G'ijduvoniy ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan Naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum erkinlik uchun g'oyaviy asos, omil bo'lib xizmat qildi. Temur va temuriy shahzodalar, ko'p olim-fozillar, hunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuqa oldilar, o'z faoliyatlari, ijodlari bilan uni har tomonlama boyitdilar. Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos tomonlaridan biri – u o'zining barcha murojaatlarida, hatto qat'iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qilgan. Ayrim yurtlar hukmdorlarining qo'pol shaklda, ba'zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga ham Sohibqiron hamma vaqt o'z fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini o'sha davrlardan meros bo'lib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas.

Amir Temurning Fransiya qiroli Sharl VI ga yo'llagan maktubida “Salom va tinchlik e'lon qilaman!”, degan so'zlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shu o'rinda Fransiya Amir Temur shaxsiga bo'lgan katta qiziqish haqida to'xtalib o'tsak.

Fransuz sharqshunoslari Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgan ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarni, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo'lgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e'tibor beradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Fransuz sharqshunolarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganish miqyosi keng bo'lib, ular o'sha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyati, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini atroflicha

yoritadi. San'at va me'morchilik fransuz olimlari uchun alohida va doimiy qiziqish mavusidir. Temuriylar Uyg'onish davriga bag'ishlab ular yozgan asarlar, o'tkazgan ilmiy anjumanlar va ko'rgazmalar shundan dalolat beradi. Amir Temur birinchi navbatda bunyodkor shaxs va har tomonlama yetuk, bilimli kishilardan edi. Uning faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, har bir odimida yurt farovonligi, obodligi, ta'lim, fan va san'atning rivoji uchun qayg'urishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amir Temur jahon tarixida. BMT. YUNESKO. Parij, 1996, 119-128, 256-293-betlar
2. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at T.1996 169-bet
3. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati T. 1996 125-bet
4. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z T. 1986 78-bet